

FITRAT ASARLARIDA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLAR

Xushvaqova Gulbahor

*Shahrisabz shahar 19-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi*

Annonatsiya. *Ushbu maqolada Fitratning hayoti va ilmiy faoliyati, mamlakat ozodligi yo'lida olib borgan sa'y- harakatlari haqida to'xtalib o'tilgan. Fitratning "Munozara" asari hamda "Oila" asari muhokamasi ham o'rin olgan.*

Annotation. *This article focuses on the life and scientific activity of Fitrat, his efforts for the freedom of the country. The discussion of Fitrat's work "Munozara" and "Family" also took place.*

Абстрактный. *Данная статья посвящена жизни и научной деятельности Фитрата, его усилиям по освобождению страны. Также состоялось обсуждение произведений Фитрата «Мунозара» и «Семья».*

Kalit so'zlar. *Fitrat, "Tug'ma iste'dod", "Munozara", "Oila", "Chig'atoy gurungi", "Qiyomat".*

Keywords. *Fitrat, "innate talent", "Discussion", "Family", "Chigatoy gurungi", "Doomsday"*

Ключевые слова. *Фитрат, «Врожденный талант», «Дискуссия», «Семья», «Чигатой гурунги», «Судный день»,*

Abdurahim o'g'li Abdurauf 1886-yil Buxoroda tug'ildi. Mir Arab madrasasida o'qidi. Turkiyaning Istanbul dorilfununidagi to'rt yillik (1909-1913) tahsil Abdurauf dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. «Yosh

buxoroliklar»ning siyosiy kurashlaridagi faol ishtirok, maorifni isloh etish, jadidchilik harakatlaridagi jiddiy izlanishlar tufayli tug'ilgan savollarga bu mamlakatning zamonaviy kechmishlaridan javoblar qidirdi. Bu vaqtda u «tug'ma iste'dod» ma'nosini anglatuvchi Fitrat taxallusi bilan ijod etayotgan shoir va yozuvchi sifatida el-yurtga taniqli edi. 1917-yil Fevral inqilobida Fitrat o'z orzularini ham ko'rgandek bo'ldi, biroq Oktyabr to'ntarishi uning teran dunyoqarashiga yangi titroqlar soldi. Bir qarashda umidbaxsh ko'ringan, aslida esa, zamirida bosqinchilik g'oyalari, qatag'onlik siyosati yashirin havolarda umidlarini goh ichiga yutib, goh oshkor etib yashadi. Turkistonda til, adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug'ullangan «Chig'atoy gurungi» jamiyatiga rahbarlik qildi. Samarqanddagi Pedakademiya dars berdi, Toshkentda Fan qo'mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Buxoro Xalq Respublikasining Tashqi ishlar xalq noziri, maorif noziri singari lavozimlardagi faoliyatida Fitratning davlat arbobi sifatidagi fazilatlari namoyon bo'ldi. Fitrat o'zbek adabiyotini istiqloq ruhidagi ajoyib she'rlar, publitsistik maqolalar, nasriy asarlar, dramalar hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan teran tadqiqotlar bilan boyitdi. Uning «Chin sevis» (1920), «Hind ixtilolchilari» (1923), «Arslon» (1925), «Vose qo'zg'oloni» (1927), «Abulfayzxon» (1924), «Shaytonning tangriga isyoni» (1924) singari dramatik asarlari muallifga katta shuhrat keltirdi. Bulardan tashqari, Fitratning yana bir qator dramalar yozgani ma'lum, biroq ular bizgacha etib kelmagan yoxud hozirgacha topilmagan.

Yozuvchi «Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg'on munozarasi» («Munozara»), «Hind sayyohi bayonoti», «Qiyomat» nomli nasriy asarlarida zamonning dolzarb muammolarini yoritdi, xalqni ma'rifat va ziyoga chorladi, yurt va yurtdoshlarining taraqqiyparvar bo'lishlarini orzu qildi. Fitratning eng buyuk orzusi Vatanni ozod, elini erkin ko'rish edi. Bu yo'ldagi faoliyati va ijodi esa, mustabid tuzum maqsadlariga zid edi. U ana shu fidoyilikning qurboni bo'ldi. Fitrat tamomila nohaq ayblar bilan 1938-yil 4-oktyabrda otib tashlandi. Mustaqillik davriga kelib Fitratning buyuk nomi tiklandi. Hayoti va ijodini atroflicha va chuqur o'rganish

boshlandi. Uch jilddan iborat «Tanlangan asarlar»i bosilib chiqdi. Yuksak saviyadagi asarlari 1991-yilda Alisher Navoiy nomidagi Respublika davlat mukofotiga munosib deb topildi.

Fitrat “ Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg‘on munozarasi” («Munozara») asari etnografik ma'lumotlarga boy asar hisoblanadi. Asarda biz quyidagi malumotlarni uchratishimiz mumkin.

1. Asarning kirish qismda muallif aholi tarkibini uchga bo‘lib beradi: masalan 1. Ulamo 2. Umaro 3. Fuqaro .Biz bundan bilishimiz mumkinki, muallif yasgab turgan davrda Buxoro aholisi uch yirik guruhga bo‘linib qolgan.

2. Keyingi qismda muallif sayyyohning shahar davozalariga kirish jarayonida bevosita Buxoro shaharida istiqomat qiluvchi aholini sanab o‘tib ketadi va biz buni shaharda istiqomat qiluvchi aholining etnik tarkibi sifatida olishimiz mumkin: armanlar, yahudiylar, buxoroliklar

3. Ushbu asarda din masalasi ham muhokama qilinib nasroniylik va islom dini amallari haqida ma'lumot berib , thotar olish masalalariga ham to‘xtalib o‘tgan.

4. Sayyoh va buxorolik yigit Naqshbandiy maqbarasiga brogan joyida sayyoh o‘z nutqi orqali aholining diniy e'tiqod va qarashlarga izoh berib u erda : sajda va amallari haqida ma'lumot berib o‘tadi va aholining ma'naviy dunyoqarashini talqin etadi(ta'zim sajdasi)

5. Bevosita sayyoh va buxorolik yigitning shahar bo‘ylab safari davomida biz aholining bevosita mehnat faoliyatlari haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Xususan, voqea jarayonida aholi attorlik, baqqollik, choyhonachilik,, samovarchilik, baliqchilik, sarbozlik (majburiy, 3000 tanga bilan ozod bo‘lgan)kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanganligi haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

6. Sayyoh va yigit bozorda aylanib yurish davomida aholi to‘planib tomosha ko‘rayotgani holati ustidan chiqib qolishadi va bu tomosha barcha odamlar yig‘ilib o‘rtaga bir bolani chiqarib atrofini o‘rab she'r ayttingan . Bu tomoshani ham biz etnografik, ma'lumot sifatida olishimiz mumkin, muallif bu holatni (lut qavmi shingari razolatga botish)deb tasvirlaydi.

7. Safar davomida do'konlar qurilish uslubi ham aytib o'tilgan, xususan shahardagi ayrim rastalar eski uslubda , ayrim rastalar esa G'arb uslubida qurilganligini aytgan.

8. Asarda ta'lim xususida : tal'im uch shaklarda bo'lganligi ular: oliy, o'rta , ibtidoiy turlariga bo'lingan.

9. Shahardagi madrasalar va ulardagi ta'lim jarayonlari haqida ma'lumot berilgan, madrasa ta'limi 20 yil bo'lgan.

10. Evropadagi ibodatxonalar , kolisolar haqida ma'lumot berilgan.

11. Asarda Juma kunning xosiyati haqida ham ma'lumot berilgan bo'lib, Juma kuni yangi kiyim kiyish qanchalik yuqori darajada ekanligini bayon etib ketgan.

12. Muallif sayyoh muloqoti orqali diniy oqimlar va ularning faolyati, protestantlarning faoliyatlari haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan.

13. Suhbat davomida savdo-sotiq massalalariga ham to'xtalib o'tilgan va o'lka hududida qadimdan savdo-sotiq gullab yashnaganligi Ispaniya va Turkiston o'rtasidagi savdo sotiq rivoj topganligi haqida ma'lumot uchraydi.

14. Keyingi o'rinlarda buxorolik yigitning uyida bir mulo tashrif buyurish o'rnida biz unga ko'rsatilgan iltifoy va mehmonnavozlik unga ehtirom sifatida yuqotiga o'tirishi haqida ma'lumot uchratamiz , bu esa o'ziga xos madaniyatning bir belgisi sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

15. Asarda Ramazonning birinchi kuni deya e'tirof etilgan kun aholi orasida juda kata ehtiprom bilan kutib olganligi, do'konu rastlar bezatilganligi, aholi Qur'on va hadis o'qib bu oyda ibodat bilan mahg'ul bo'lishlari haqida ma'lumot keltirilgan.

Milliy uyg'onish g'oyalari, eng avvalo, shaxs erkinligi, ijtimoiy taraqqiyot muammolarini hal etishga qaratiladi. «Qiyomat» hikoyasi va uning bosh qahramoni Pochamir qiyofasida adib xuddi shu masalalarni talqin etdi. «Shaytonning tangriga isyoni» nomli she'riy dramasida bu muammo yanada keskinroq qo'yildi. Go'yoki diniy xurofot tanqid qilinayotgan yo'sinda yozilgan dramada muallif o'zining asl g'oya va maqsadlarini tag zaminli, yashirin shaklda ifodalaydi. Tangri, Shayton, Malak, Odam ato bo'lib o'tgan o'tkir munozara, bahslar asosida Fitrat asarda aholi o'rtasida bunday obrazlar haqida o'ylar bor ekanligini ko'ramiz. «Tinch turg'onlar

kishilar xam bo'lishi mumkin. O'z saodati, kelajagi, yaxshi yashashi, osuda xayot egasi bo'lishlik o'sha millat kishisining xarakatchanligiga xam bog'liqligini aytadi.” Qaysi millatning nomoyondalari g'ayratli, shijoatli bo'lsalar, qo'l oyog'i kuchli va chaqqon, xamma a'zolari sog' va faol izzat va e'tibor soxibi bo'ladilar” deya ta'kidlab o'tadi. Fitrat millatning sifati uning miqdori bilan xam bog'liq tomonlarini anglatgan. Buning uchun qayg'urgan xam. Oilada millatning qadri va sha'nini belgilovchi xarakterlar, avvalo er va xotinning iffat, diyonati bilan bog'liq ekanini xayotiy misollar bilan anglatadi.

Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari, milliy o'zlikni anglash haqidagi g'oyalari asosan o'zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida berilgan. Ushbu asar 1914 yilda yozilgan. “Oila” asari o'sha davr shiddatini o'zida mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. U o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Sababi, o'sha davr shiddati qaysidir ma'noda badiiy asarlarga ham ko'chgandi. “Oila” asarida ham tanqidiy ruh, ham da'vat ruhi kuchli.

Fitrat o'z o'lkasini ozod ko'rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lmog'i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila etishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...”, — deydi alam bilan Fitrat.

Darhaqiqat, davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqei va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini teran anglashi, bugungi avlodga bog'liqdir. Zero bilim va kasb-hunarga qiziqish, ota-onaga xurmat, do'stga sadoqat, mehr-shafqat, halollik va poklik kabi axloqiy fazilatlar oilada shakllanadi va sayqal topadi. Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari oilaning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga bag'ishlangan. Ayniqsa, asarning “Uylanish yoki uylanmaslik

xususida”, “Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida”, “Er-xotinning qanday yashamoqligi xususida”, “Oilaning maishati va idorasi” qismlarida bu masalalar xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin bo‘lgan masalalarni yoritadi. U vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, kitobning birinchi qismiga, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo‘lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigienik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin edi. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi. Bu jihatlarni o‘sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak juda ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda xali medisina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmush madaniyati ham u qadar yuqori emas edi. Fitrat ko‘plab xorijiy davlatlarda bo‘lganligi sababli, u erdagi ijobiy, o‘rganish zarur bo‘lgan, turmush tarziga oid juda ko‘p tajriba ortirgan edi. Er-xotin va farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligida, birga yashovchilar, Fitratning fikricha, oilani tashkil etadi.

Xulosa. Fitratning barcha asarlarida ijtimoiy, axloqiy masalalar muhokama etiladi. Xususan, “Oila” asarida har bir oila manfaatini ximoya qilish maqsadida turli qonunlar ishlab chiqilgani, ular «manzil tadbir» (ro‘zg‘or tebratish tadbiri) deb atalgani ta'kidlanadi. Shu ma'noda, muayyan mamlakat aholisi axloqsizlik oqibatida oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l bersa, shu millatning saodati ham, hayoti ham shubha ostida qoladi. Uni o‘qigan kishi nafaqat axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, uni qanday qilib qo‘lga kiritish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir-jadid Abdurauf Fitratning “Oila” asari Turkiston milliy Uyg‘onishida benihoya katta rol o‘ynadi, deyish mumkin. Ayni paytda u hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ajoyib axloqiy-ma'rifiy risola sifatida alohida e'tiborga molik. Fitratning axloqiy qarashlarining dolzarbligi shundaki u o‘z davrini axloqiy hayotini o‘zgartirmoqchi va insonlarni o‘z davrining

milliy ozodlik g'oyasiga chorlaydi. Uning bizga qoldirgan merosi chinakamiga bizning amaliy faoliyatimizga to'g'ri keladigan axloqiy ongimizni, o'zimizni tutishimiz, xatti-harakatlarimiz, muomala odoblarimizni yaxshilash va boyitishga katta xissa qo'shadi. Fitratning "Oila" asari o'z davrining va bugungi kun insoniyatining ma'naviy dunyosini boyitishda katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.A. Fitrat "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" Toshkent- 2013
- 2.Rustam Sharipov "Turkitonda jadidchilik harakati tarixidan" Toshkent- 2002
3. "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" Toshkent- 1999